



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 02 | pp. 162-171 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI INNOVATSION RIVOJLANISH BILAN UYG'UNLASHTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI



Xamrayev Quvvat Iskandarovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada mintaqaviy investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirish masalasi tahlil qilindi. Tadqiqotda mintaqaviy innovatsion tizimlar, uch spiral modeli va smart ixtisoslashtirish konsepsiyalari nazariy asos sifatida qo'llanildi. O'zbekiston misolida investitsiya muhitining innovatsion salohiyatga ta'siri statistik va qiyosiy ma'lumotlar asosida o'rganildi. Mintaqalar kesimida investitsiya oqimlari, innovatsion infratuzilma va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Tahlil natijasida investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish bilan integratsiyalash zarurati asoslandi. Muallif tomonidan investitsiya muhiti, uyg'unlashtirish mexanizmlari va innovatsion natijalarni bog'lovchi strategik model ishlab chiqildi. Model klaster siyosati, davlat-xususiy sheriklik, raqamli transformatsiya va monitoring tizimlari orqali mintaqaviy innovatsion rivojlanishni kuchaytirish imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy investitsiya siyosati, innovatsion rivojlanish, smart ixtisoslashtirish, uch spiral modeli, klaster siyosati, O'zbekiston.

Аннотация. В статье проанализирована проблема согласования региональной инвестиционной политики с инновационным развитием. В исследовании использованы теоретические подходы региональных инновационных систем, модели тройной спирали и концепции умной специализации. На примере Узбекистана изучено влияние инвестиционного климата на инновационный потенциал регионов на основе статистического и сравнительного анализа. Оценена взаимосвязь между инвестиционными потоками, инновационной инфраструктурой и экономическими результатами регионов. Результаты исследования подтвердили необходимость интеграции инвестиционной и инновационной политики. Автором разработана стратегическая модель, связывающая инвестиционную среду, механизмы согласования и инновационные результаты. Модель показывает возможности усиления регионального инновационного развития через кластерную политику, государственно-частное партнерство, цифровую трансформацию и систему мониторинга.

Ключевые слова: региональная инвестиционная политика, инновационное развитие, умная специализация, модель тройной спирали, кластерная политика, Узбекистан.

Abstract. The article examined the alignment of regional investment policy with innovative development. The study applied the theoretical frameworks of regional innovation systems, the triple helix model, and the smart specialisation concept. Using Uzbekistan as an empirical case, the influence of the investment environment on regional innovation capacity was analysed based on statistical and comparative data. The relationship between investment flows, innovation

infrastructure, and regional economic outcomes was evaluated. The findings demonstrated the necessity of integrating investment policy with innovation policy. The author developed a strategic model linking the investment environment, coordination mechanisms, and innovation outcomes. The model indicated opportunities to strengthen regional innovative development through cluster policy, public-private partnerships, digital transformation, and monitoring mechanisms.

Keywords: *regional investment policy, innovative development, smart specialisation, triple helix model, cluster policy, Uzbekistan.*

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish paradigmasi investitsiya oqimlarining miqdoriy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda ularning sifatiiy xususiyatlari - ya'ni texnologik intensivligi, mahalliy innovatsion ekotizimga ta'siri va mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash qobiliyati nuqtai nazaridan ham baholanishini taqozo etadi. Bugungi kunda investitsiya siyosati va innovatsion rivojlanish siyosatini alohida-alohida shakllantirish iqtisodiy samaradorlik jihatdan tobora cheklangan deb tan olinmoqda: ikki siyosatning strategik integratsiyasigina mintaqaviy o'sishning barqaror dvigateliga aylanishi mumkin. [1]

Hududiy iqtisodiyot nazariyasida mintaqaviy innovatsion tizimlar (RIS) konsepsiyasi ushbu muammoning konseptual yadrosini tashkil etadi: u mintaqada joylashgan firmalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ta'lim muassasalari va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarmoqlari innovatsiyalarning asosiy generatori ekanligini asoslaydi. [4] Biroq nazariy jihatdan puxta asoslangan ushbu tizimning amaliy samaradorligi ko'p jihatdan investitsiya siyosatining RIS ehtiyojlariga mos kelishi, ya'ni ikki siyosatning kogerentligi bilan belgilanadi. [7]

O'zbekiston misolida ushbu muammo alohida ahamiyat kasb etadi. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi Taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakat investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion iqtisodiyotga o'tishni ustuvor yo'nalishlar sifatida belgiladi. [7] 2023-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 9,8 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, [19] ammo ushbu investitsiyalarning innovatsion faoliyatga qo'shayotgan hissasi hali ham yetarli darajada baholanmagan va tartibga solinmagan. Mintaqaviy kesimda bu farqlanish yanada keskinroq namoyon bo'ladi: poytaxtdan tashqaridagi hududlarda investitsiya va innovatsion infratuzilmaning rivojlanish darajalari o'rtasidagi nomutanosiblik sezilarli.

Muammoning dolzarbligi yana bir omil bilan ham kuchayadi: raqobatbardoshlik indekslarida innovatsiyalar ulushi tobora oshib bormoqda. Global innovatsiyalar indeksi (GII) 2023 metodologiyasiga ko'ra, [21] mamlakat reyting o'rnini barqarorlashtirish uchun nafaqat mutlaq investitsiya hajmini, balki investitsiya-innovatsiya uyg'unligini ta'minlash talab etiladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - mintaqaviy investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtiruvchi strategik yo'nalishlarni nazariy jihatdan asoslash va O'zbekiston sharoitiga mos amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot uchta ilmiy savolga javob izlaydi: (1) mintaqaviy RIS nazariyasi investitsiya va innovatsiya siyosatlarini qanday bog'laydi; (2) O'zbekistonning hududiy iqtisodiy tuzilmasi ushbu uyg'unlikni amalga oshirishda qanday imkoniyat va cheklovlarni vujudga keltiradi; (3) maqsadli uyg'unlashtirish siyosatining samarali vositalar tizimi qanday bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy innovatsion tizimlar nazariyasining asoschisi Phillip Cooke mintaqani shunchaki ma'muriy birlik sifatida emas, balki o'ziga xos institutsional tarixi, madaniy me'yorlari va hamkorlik tuzilmalariga ega mustaqil innovatsion makro sifatida talqin etdi. [14] Ushbu yondashuv keyinchalik Asheim va Gertler tomonidan yanada rivojlantirildi: ular RISni «mintaqadagi firmalar, ilmiy muassasalar, qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar va ularga tegishli institutlar majmuasi» sifatida tushuntirdilar. [5]

Storper «savdosiz o'zaro bog'liqliklar» tushunchasini joriy etdi - mintaqadagi bilim, me'yor va konvensiyalarning norasmiy almashinuvi innovatsion jarayonning asosiy yoqilg'isi ekanligini ta'kidladi. [20] Bu nuqtai nazardan, investitsiya siyosati faqat moddiy infratuzilmani emas, balki ushbu norasmiy muhitni ham ta'minlashi talab etiladi. Boschma «yaqinlik» konsepsiyasini ishlab chiqib, geografik, institutsional va kognitiv yaqinliklarning kombinatsiyasi innovatsion samaradorlikni belgilashini ko'rsatdi. [12]

Carlsson va boshqalar innovatsion tizimlar metodologiyasini umumlashtirgan holda, tizimning asosiy funksiyalari sifatida bilim yaratish, diffuziyasi va ishlatilishini ajratib ko'rsatdi. [13] Ushbu funksional tasnif keyinchalik mintaqaviy siyosatni baholash uchun amaliy vosita bo'lib xizmat qilmoqda: investitsiyalar uchta funksiyadan qaysi biriga yo'naltirilganligi siyosat samaradorligini belgilovchi omilga aylanadi.

Etzkowitz va Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan uch spiral modeli davlat, universitet va sanoatning o'zaro aloqalarini innovatsiyalar generatsiyasining asosiy tizimi sifatida konseptuallashtirdi. [15] Ushbu model keyinchalik investitsiya siyosatining «qaysi aktyorga yo'naltirilgani» masalasini tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etdi: faqat sanoatga yo'naltirilgan investitsiya siyosati tizimning ikki halqasini - universitet va davlat tuzilmalarini - chetlab o'tgani uchun innovatsion potentsialning to'liq ro'yobga chiqishiga imkon bermaydi.

Feldman geografik yaqinlik va innovatsiya o'rtasidagi munosabatlarni empirik tahlil qilib, investitsiya-innovatsiya integratsiyasida joylashuv omili hal qiluvchi rol o'ynashini isbotladi. [16] Fritsch va Wyrwich so'nggi o'n yilliklardagi tendentsiyalarni tahlil etib, yirik shaharlar yangi innovatsiyalar konsentratsiyasida ustunligini saqlab qolayotganini, biroq siyosiy aralashuv orqali ushbu nomutanosiblikni qisman bartaraf etish mumkinligini ko'rsatdi. [6]

Rodriguez-Pose va Crescenzi Yevropa mintaqalari uchun o'tkazilgan panel tahlil asosida TTIU investitsiyalarining mintaqaviy o'sishga ta'siri to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mahalliy absorptiv salohiyat orqali vositachilanadi degan muhim xulosaga keldi. [4] Bu natija siyosiy jihatdan juda muhim: bir xil hajmdagi TTIU investitsiyalari turli mintaqalarda mutlaqo boshqacha innovatsion natijalar berishi mumkin, chunki mahalliy tizimning o'zlashtirish quvvati farqlanadi.

Foray, David va Hall tomonidan ishlab chiqilgan smart ixtisoslashtirish (RIS3) konsepsiyasi Yevropa Ittifoqi mintaqaviy siyosatining asosiy vositasiga aylandi va investitsiya-innovatsiya siyosatlarini integratsiya qilishning eng puxta metodologik asosi sifatida tan olindi. [22] RIS3 yondashuviga ko'ra, har bir mintaq o'z iqtisodiyotidagi mavjud imkoniyatlar va tuzilmaviy uzilishlar asosida investitsiyalarni ustuvor yo'nalishlarga konsentratsiyalashi - ya'ni selektiv ixtisoslashtirish strategiyasini amalga oshirishi - lozim.

McCann va Ortega-Argiles smart ixtisoslashtirish nazariyasini mintaqaviy o'sish bilan bog'liq holda chuqurlashtirdi va YI investitsiyalarining samaradorligi aniq ixtisoslashtirilgan yo'nalishlar bo'yicha konsentratsiyalanganda sezilarli darajada oshishini empirik ma'lumotlar bilan tasdiqladi. [17]

Yevropa Komissiyasi mintaqaviy innovatsiyalar miqyosi ko'rsatdi: smart ixtisoslashtirish siyosatini izchil amalga oshirgan mintaqalarda innovatsion indeks o'sishi o'rtacha 12-18 foizga yuqori bo'ldi. [10] Porter klaster siyosatining investitsiya muhiti bilan uyg'unligini tahlil qildi va raqobatbardosh klasterlar shakllanishida davlat-xususiy sheriklikning ahamiyatini asoslab berdi. [18]

O'zbekiston iqtisodiy liberallashtirish kontekstida mintaqaviy investitsiya siyosatini innovatsiyalar bilan bog'lash muammosi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi. 2020-yildagi innovatsion faoliyat konsepsiyasi [23] va Yangi Taraqqiyot strategiyasi [7] davlat hujjatlari darajasida ushbu integratsiya zaruriyatini tan oldi. IMF Yevropa va Markaziy Osiyo iqtisodiyotlarini baholashda O'zbekistondagi investitsiya muhitining ijobiy o'zgarishlarini qayd etdi, ammo Innovatsion integratsiyani kuchaytirish uchun investitsiya loyihalarini tanlash jarayonida texnologik komponent va innovatsion qiymat mezonlarini joriy etish zarur[9].

Osiyo Taraqqiyot Banki Rivojlanayotgan Osiyo davlatlarida innovatsiya va texnologiyalarni tahlil qilib, O'zbekistonda innovatsion aktivlik va investitsiya oqimlari o'rtasidagi tarkibiy uzilish mavjudligini aniqladi. [24] Lundvall milliy innovatsion tizimlar konsepsiyasida ishlab chiqarish va bilim orasidagi interaktiv ta'lim bog'liqligi [25] mintaqaviy darajada investitsiya siyosatining differentsiatsiyasi zarurligini asoslaydi - bu O'zbekistonda ham tegishli metodologik asos sifatida foydalanilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda mintaqaviy investitsiya siyosati va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va statistik ma'lumotlar tahlili usullari qo'llanildi. Nazariy asos sifatida mintaqaviy innovatsion tizimlar konsepsiyasi, uch spiral modeli va smart ixtisoslashtirish yondashuvi foydalanildi. Empirik tahlil uchun O'zbekiston Statistika agentligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, UNCTAD hamda IMF ma'lumotlar bazalaridagi ko'rsatkichlar yig'ildi. Tadqiqot 2018–2023 yillar davrini qamrab oldi va 14 ta hududiy birlik bo'yicha ma'lumotlar o'rganildi. Investitsiya va innovatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun investitsiya oqimlari, innovatsion infratuzilma, TTIU xarajatlari hamda iqtisodiy natijalar ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalar asosida mintaqaviy siyosatni baholash uchun konseptual model shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyoti 2018-yildan boshlab sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. 2022-yilda YaIM o'sishi 5,7 foizni tashkil etdi, mamlakatga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 2017-yildagi 1,6 milliard dollardan 2023-yilda 9,8 milliard dollargacha oshdi. [19] Bu o'sish tendensiyasi investitsiya muhitini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy islohotlar va erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) siyosatining bevosita natijasi sifatida baholanmoqda.

Biroq investitsiya oqimlarining tarkibiy tahlili muhim farqlanishlarni ko'rsatmoqda. UNCTAD ma'lumotlariga ko'ra, [3] O'zbekistonga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalarning 60 foizdan ortig'i an'anaviy sanoat va xom ashyo sektorlariga to'g'ri

keladi, texnologik jadal va bilim intensiv sohalarga esa umumiy investitsiyalarning 12-15 foizi ulashadi. Bu raqam OECD mamlakatlaridagi o'rtacha ko'rsatkich (35-42%) bilan solishtirganda sezilarli darajada past. [21]

Mintaqaviy kesimda nomutanosiblik yanada aniq ko'rinadi. O'zbekiston Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, [8] Toshkent shahri va Toshkent viloyati mamlakat bo'yicha umumiy investitsiyalarning 47 foizini o'zlashtiradi. Farg'ona vodiysi viloyatlari 22 foizni tashkil etsalar-da, innovatsion infratuzilma ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farqlanadi. Xorazm va Surxondaryo viloyatlari investitsiya faolligining eng past darajasini ko'rsatadi - bu holat mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning nomutanosibligini yaqqol aks ettiradi.

Innovatsion faollik nuqtai nazaridan, O'zbekiston Global Innovatsiyalar Indeksida (GII 2023) 82-o'rinni egalladi [21] va 2019-yildagi 93-o'ringa nisbatan ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Biroq innovatsion output ko'rsatkichlari - ayniqsa innovatsion natijalarni oshirish maqsadida patentlash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish va yuqori texnologiyali eksportni rag'batlantiruvchi maxsus dasturlarni kengaytirish zarur..


Mintaqaviy investitsiya siyosati va innovatsion rivojlanish siyosatining kogerentlik darajasini baholashda to'rtta asosiy mezon bo'yicha tahlil o'tkazildi: maqsad muvofiqlik, vositalar muvofiqligi, institutsional muvofiqlik va vaqtinchalik muvofiqlik.

Maqsad muvofiqligi: Yangi Taraqqiyot strategiyasida [7] investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish maqsadlari bir hujjatda birga tilga olingan, ammo ular o'rtasidagi operatsional bog'liqlik aniq mexanizmlar bilan rasmiylashtirilmagan. Investitsiya va innovatsiya siyosatlarining samaradorligini oshirish maqsadida ushbu ikki yo'nalish o'rtasida institutsional koordinatsiyani kuchaytirish hamda yagona strategik rejalashtirish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanad[23].

Vositalar muvofiqligi: Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va texnoparklar siyosatning ikkala yo'nalishini bog'lovchi yagona instrumental kesishish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Ammo EIZlardagi davlat tomonidan soliq to'lash bo'yicha beriladigan yengillik imtiyozlari asosan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga taqdim etilib, TTIU faoliyatini rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari, grantlar va innovatsion investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi fiskal instrumentlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Porter klaster nazariyasiga [18] ko'ra, instrumental uyg'unlikning eng yuqori darajasi vositalar «raqobatbardosh ustunlikni shakllantiruvchi omillar majmuini» bir vaqtda qo'llab-quvvatlaganda erishiladi.

Institutsional muvofiqlik: Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan Innovatsiyalar bo'yicha vakolatli organ o'rtasidagi institutsional koordinatsiyani kuchaytirish uchun investitsiya, innovatsiya va sanoat siyosati bilan shug'ullanuvchi davlat organlari o'rtasida integratsiyalashgan boshqaruv platformasini yaratish maqsadga muvofiq. Etzkowitz va Leydesdorff [15] uch spiral modeli nuqtai nazaridan baholanganda, davlat-sanoat-universitet o'zaro ta'siri iqtisodiy faoliyatning ayrim sektorlari (IT, farmatsevtika) doirasida rivojlanayotgan bo'lsa-da, tizimli institutsional integratsiya hali yetarli darajada emasligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan strategik model (1-rasmga qarang) investitsiya muhiti, uyg'unlashtirish mexanizmi va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi funksional bog'liqliklarni uch blokli tizim sifatida ko'rsatadi.



1-rasm. Mintaqaviy investitsiya siyosatini innovatsion rivojlanish bilan uyg'unlashtirish strategik modeli¹

Modelning birinchi bloki - investitsiya muhiti - beshta resurs ta'minot omilini o'z ichiga oladi: moliyaviy resurslar, institutsional tuzilma, huquqiy-me'yoriy baza, infratuzilma salohiyati va insoniy kapital. Ushbu komponentlar Barca, McCann va Rodriguez-Pose [11] «o'rin asoslangan» yondashuvi bilan uyg'unlashadi: har bir mintaqaning investitsion potentsiali o'z o'ziga xos resurs kombinatsiyasiga ega bo'lib, universal yondashuv o'rniga differensiyalashgan siyosat talab etiladi.

Modelning ikkinchi bloki - uyg'unlashtirish mexanizmi - beshta strategik vositani o'z ichiga oladi: smart ixtisoslashtirish, uch spiral hamkorligi, KPI-asoslangan monitoring, klaster siyosati va raqamli transformatsiya. Smart ixtisoslashtirish vositasi O'zbekiston uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, [22] har bir mintaqaning salohiyatli ixtisoslik yo'nalishlarini aniqlash va investitsiyalarni ushbu yo'nalishlarga strategik yo'naltirish imkonini beradi.

Modelning uchinchi bloki - innovatsion rivojlanish - beshta natija ko'rsatkichini o'z ichiga oladi: ilmiy-texnik salohiyat, iqtisodiy diversifikatsiya, startup ekotizimi, ijtimoiy-iqtisodiy effekt va mintaqaviy raqobatbardoshlik. Ushbu ko'rsatkichlar OECD [21] va Yevropa Komissiyasi [10] tomonidan tasdiqlangan xalqaro indikatorlar bilan uyg'unlashadi.

Modelning eng muhim xususiyati - teskari aloqa mexanizmidir. Monitoring va baholash natijalari doimiy ravishda investitsiya siyosatini moslashtirishga xizmat qiladi, bu esa tizimning adaptiv xarakter kasb etishini ta'minlaydi. Lundvall [25] interaktiv ta'lim

¹ Muallif ishlanmasi.

konsepsiyasi bu mexanizmning nazariy asosini tashkil etadi: siyosat subyektlari faqat niyatga ko'ra emas, balki amaliy tajriba orqali ham o'rganadi va moslashadi.

O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy xaritasini tahlil qilganda uchta shartli tip ajratiladi: (1) innovatsion liderlar - Toshkent shahri (texnologiya, moliya, xizmatlar), (2) sanoat-innovatsion o'tish zonalari - Toshkent viloyati, Samarqand, Farg'ona (sanoat klasterlari va ta'lim markazi), (3) resurs-investitsion potentsial mintaqalar - Navoiy (konmetallurgiya), Qashqadaryo va Surxondaryo (energetika va agrosanoat).

Ushbu tipologiya siyosiy ahamiyatga ega: OECD [21] tavsiyanomalariga ko'ra, innovatsion lider mintaqalar uchun texnologik aktyorlarni bog'lash («connectivity») va bilim diffuziyasini kuchaytirish ustuvor bo'lsa, sanoat-innovatsion o'tish zonas uchun absorptiv salohiyatni oshirish va texnologik modernizatsiyani rag'batlantirish muhimroq. Resurs potentsiali yuqori mintaqalar uchun esa investitsiyalarni qayta ishlov va diversifikatsiya sektorlariga yo'naltirish, mahalliy tadbirkorlik ekotizimini shakllantirish asosiy strategik vazifa hisoblanadi.

Bunday farqlashtirilgan yondashuv Rodriguez-Pose va Crescenzi [4] empirik topilmalarini mintaqaviy siyosat darajasiga ko'chiradi: o'xshash TTIU investitsiyalari turli mintaqalarda turli innovatsion natijalarga olib kelishi, bu esa bir xil siyosiy vositalar bilan differensiallashtirilgan strategik maqsadlarga erishishning asosi ekanligini ko'rsatadi.

ADB [24] tahlilida O'zbekiston kabi qo'shni mamlakatlar tajribasi ko'rsatiladi: mintaqaviy innovatsion infratuzilmaga maqsadli investitsiya oqimlarini kafolatlash mexanizmi (investitsiya kvotasi) qo'llanilganda regional innovatsion salohiyat nisbatan qisqa muddat - 5-7 yil - ichida sezilarli ravishda oshishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy investitsiya siyosati va innovatsion rivojlanish siyosatining kogerentligi tasodifiy emas, balki maqsadli institutsional arxitektura va siyosiy vositalar dizayni orqali erishiladigan holat. O'zbekiston misolida ikki siyosatning mavjud fragmentatsiyasi investitsiya oqimlarining innovatsion konvertatsiya samaradorligini pasaytiruvchi asosiy tizimiy omil sifatida aniqlandi.

Mintaqaviy innovatsion tizimlar nazariyasi [5] va smart ixtisoslashtirish konsepsiyasi [22] birgalikda uyg'unlashtirish siyosatining ikki asosiy tamoyilini belgilaydi: (1) resurslarni mintaqaning mavjud ustunliklariga muvofiqlashtirilgan ustuvor yo'nalishlarga konsentratsiyalash va (2) investitsiya-innovatsiya zanjirida barcha institutsional aktyorlarni bir tizimga birlashtiruvchi hamkorlik platformalarini yaratish.

Ishlab chiqilgan strategik model uch blokli tizimli ramka orqali investitsiya muhiti, uyg'unlashtirish mexanizmi va innovatsion natijalar o'rtasidagi funksional bog'liqliklarni ko'rsatib berdi. Modelning adaptiv xarakteri - teskari aloqa mexanizmi - siyosatni dinamik muhit sharoitida doimiy moslashtirib borish imkonini beradi.

Birinchi tavsiya - Investitsiya va Innovatsiyalar siyosatini integratsiyalashgan koordinatsiya mexanizmi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan innovatsion rivojlanishga mas'ul tuzilma o'rtasida faoliyat yurituvchi doimiy koordinatsion kengash tashkil etilishi tavsiya etiladi. Ushbu kengash investitsiya loyihalarining innovatsion intensivligini baholash va reyting tizimini joriy etishi hamda innovatsion salohiyatni kuchaytiruvchi loyihalarga qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. [1]

Ikkinchi tavsiya - Mintaqaviy smart ixtisoslashtirish strategiyalari. Har bir viloyat uchun alohida RIS3-asoslangan strategik hujjat ishlab chiqilishi, unda mintaqaning mavjud ustunlik sohalari, ustuvor investitsiya yo'nalishlari va innovatsion rivojlanish maqsadlari o'zaro bog'liq holda belgilanishi tavsiya etiladi. Ushbu strategiya mintaqadagi barcha institutsional aktyorlar - mahalliy hokimiyat, universitetlar, sanoat vakillari va biznes birlashmalar - ishtirokida konsultatsion jarayon orqali shakllantirilishi lozim. [17] [22]

Uchinchi tavsiya - Uch spiral hamkorligini institutsionalashtirish. Mintaqaviy innovatsion klasterlar doirasida Davlat-Universitet-Sanoat hamkorlik platformalari tashkil etilishi tavsiya etiladi. [15] Ushbu platformalar ilmiy tadqiqotlar va sanoat ehtiyojlari o'rtasidagi bo'shliqni to'ldiruvchi «vositachilik» funksiyasini bajarib, investitsiya mablag'larini texnologik transfert kanallariga yo'naltirishi kerak.

To'rtinchi tavsiya - Raqamli investitsiya-innovatsiya platformasi. Milliy miqyosda investitsiya loyihalarining innovatsion intensivligi, texnologik transfert potentsiali va mintaqaviy multiplikator effektini real vaqt rejimida monitoring qiluvchi raqamli platforma yaratilishi tavsiya etiladi. [19] Ushbu platforma investitsiya qarorlarini qabul qilishda innovatsion samaradorlik kriteriyalarini hisobga oluvchi avtomatlashtirilgan baholash tizimiga asoslanishi lozim.

Beshinchi tavsiya - Mintaqaviy innovatsion fond. Texnologik jihatdan jadal sohalari uchun maqsadli moliyaviy ko'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida mintaqaviy innovatsion fondlar tashkil etilishi tavsiya etiladi. [24] Fond resurslari xususiy investitsiyalar bilan ko'paytiruvchi nisbatda sarflanishi - ya'ni 1 so'm davlat mablag'i kamida 3 so'm xususiy investitsiyani jalb etishi - maqsad qilib qo'yilishi lozim. Bu yondashuv Yevropa strukturaviy va investitsion fondlarining isbotlangan amaliyotiga asoslanadi. [10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2023). OECD Regional Outlook 2023: Rethinking Regions, Anticipating the Future. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/a378ff36-en>
2. World Bank (2023). Global Investment Competitiveness Report 2023. World Bank Group. <https://www.worldbank.org/en/topic/investment-climate/brief/global-investment-competitiveness>
3. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. United Nations. <https://unctad.org/wir2023>
4. Rodríguez-Pose, A., & Crescenzi, R. (2008). Research and Development, Spillovers, Innovation Systems, and the Genesis of Regional Growth in Europe. *Regional Studies*, 42(1), 51-67. <https://doi.org/10.1080/00343400701654186>
5. Asheim, B. T., & Gertler, M. S. (2005). The Geography of Innovation: Regional Innovation Systems. In J. Fagerberg, D. C. Mowery, & R. R. Nelson (Eds.), *The Oxford Handbook of Innovation*. Oxford University Press. <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199286805.003.0011>
6. Fritsch, M., & Wyrwich, M. (2021). Is Innovation (Increasingly) Concentrated in Large Cities? An International Comparison. *Research Policy*, 50(9), 104346. <https://doi.org/10.1016/j.respol.2021.104346>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi (2023). O‘zbekiston Respublikasining statistik yilnomasi 2023. <https://stat.uz/uz/>
9. International Monetary Fund (2023). World Economic Outlook Database, October 2023. International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2023/October>
10. [10] European Commission (2022). Regional Innovation Scoreboard 2022. Publications Office of the European Union. <https://doi.org/10.2873/408811>
11. [11] Barca, F., McCann, P., & Rodríguez-Pose, A. (2012). The Case for Regional Development Intervention: Place-Based versus Place-Neutral Approaches. *Journal of Regional Science*, 52(1), 134-152. <https://doi.org/10.1111/j.1467-9787.2011.00756.x>
12. Boschma, R. (2005). Proximity and Innovation: A Critical Assessment. *Regional Studies*, 39(1), 61-74. <https://doi.org/10.1080/0034340052000320887>
13. Carlsson, B., Jacobsson, S., Holmén, M., & Rickne, A. (2002). Innovation Systems: Analytical and Methodological Issues. *Research Policy*, 31(2), 233-245. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(01\)00138-X](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(01)00138-X)
14. Cooke, P. (1992). Regional Innovation Systems: Competitive Regulation in the New Europe. *Geoforum*, 23(3), 365-382. [https://doi.org/10.1016/0016-7185\(92\)90048-9](https://doi.org/10.1016/0016-7185(92)90048-9)
15. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The Dynamics of Innovation: From National Systems and 'Mode 2' to a Triple Helix of University-Industry-Government Relations. *Research Policy*, 29(2), 109-123. [https://doi.org/10.1016/S0048-7333\(99\)00055-4](https://doi.org/10.1016/S0048-7333(99)00055-4)
16. Feldman, M. P. (1994). *The Geography of Innovation*. Springer. <https://doi.org/10.1007/978-94-017-3333-5>
17. McCann, P., & Ortega-Argilés, R. (2015). Smart Specialization, Regional Growth and Applications to European Union Cohesion Policy. *Regional Studies*, 49(8), 1291-1302. <https://doi.org/10.1080/00343404.2013.799769>
18. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. *Harvard Business Review*, 76(6), 77-90. <https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition>
19. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (2023). O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar to‘g‘risidagi hisobot 2023. <https://mift.uz/uz/lists/view/200>
20. Storper, M. (1995). The Resurgence of Regional Economies, Ten Years Later: The Region as a Nexus of Untraded Interdependencies. *European Urban and Regional Studies*, 2(3), 191-221. <https://doi.org/10.1177/096977649500200301>
21. OECD (2021). *OECD Science, Technology and Innovation Outlook 2021: Times of Crisis and Opportunity*. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/75f79015-en>
22. Foray, D., David, P. A., & Hall, B. H. (2011). *Smart Specialisation — From Academic Idea to Political Instrument*. MTEI Working Paper, EPFL. <https://doi.org/10.2139/ssrn.2204901>

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-dekabrdagi PF-6096-son Farmoni "O‘zbekiston Respublikasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida". <https://lex.uz/docs/5088303>
24. Asian Development Bank (2022). Innovation and Technology in Developing Asia. ADB Sustainable Development Working Paper. <https://www.adb.org/publications/innovation-technology-developing-asia>
25. Lundvall, B.-Å. (Ed.) (1992). National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. Pinter Publishers, London. <https://scholar.google.com/scholar?q=Lundvall+National+Systems+of+Innovation+1992>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

